

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.Q.Qayumova, X.M.Komilova	
Turkiston Qum balig'i Gobio lepidolaemus (K.Kessler1872)ning morfometrik xususiyatlarining qiyosiy tahliliga oid	103
U.I.Obidjanov	
Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning ayrim masalalari.....	108
E.X.Najmiddinov, M.A.Muxammadiyev	
Baliqlarning gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmint preparatlarni qo'lash usullari	112
M.M.Mirzaxalilov	
Shahrixonsoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ining (Iskandaria kuschakewitschi) ba'zi morfobiologik ko'rsatkichlari	115
N.B.Ikramov	
Shimoliy Farg'onan kanali algoflora taksonlarining mavsumiy dinamikasi	119

GEOGRAFIYA

M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari	126
O.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari.....	133
M.R. Atabayeva	
O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida "Ichki suvlari va suv boyliklari" mavzusini interfaol o'rganishda klaster usulidan foydalanishning ahamiyati	139
O.I.Abdug'aniev, T.D.Komilova	
Tabiat xilma-xilligi: nazariy asoslari, yondashuvlar va o'rganish usullari	144
P.R.Qurbanov	
O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari	150

ILMIY AXBOROT

Q.B.Baratov	
Bo'lajak o'qituvchilarini uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	158
A.N.Qosimov	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmuni	166
J.V.Solijonov	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkur rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	172
A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot usullari xususida	175
I.Aldashev	
O'quv jarayoniga media ta'limning integratsiyasi	182
I.R.Asqarov, G.A.Mo'minova	
Dalachoy tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash va ularning organizmga ta'siri	188
F.O.Toshboltayev	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli	194
A.N.Meliboyev	
Inson oliy qadriyat tamoyili asosida jamiyatda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarining kelgusidagi vazifalari	199
I.A.Suvanov	
Global o'zgarishlar jarayonida AQShning mafkuraviy taraqqiyot yo'li va uning o'ziga xosligi	205
G.R.Mamatdilieva	
Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni	211
M.O.Habibullaev	
Korruptsiyanı vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillari va unga qarshi kurashning mexanizmlari.....	219
F.T.Raximova, S.S.Usmanova	
Minimal matnlarning kognitiv tahlili	222

O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI KURSIDA "ICHKI SUVLARI VA SUV BOYLIKHLARI" MAVZUSINI INTERFAOL O'RGANISHDA KLASTER USULIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛАСТЕРНОГО МЕТОДА В ИНТЕРАКТИВНОМ ИЗУЧЕНИИ «ВНУТРЕННИХ ВОД И ВОДНЫХ РЕСУРСОВ» В КУРСЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ГЕОГРАФИИ УЗБЕКИСТАНА

THE SIGNIFICANCE OF USING THE CLUMSTER METHOD IN THE INTERACTIVE STUDY "OF THE INLAND WATERS AND THE WATER RESOURCES" IN THE COURSE OF NATURAL GEOGRAPHY OF UZBEKISTAN

Atabayeva Mayjuda Rustamovna¹

¹Atabayeva Mayjuda Rustamovna

– Urganch davlat universiteti akademik litseyi
Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada "O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursi"da "O'zbekiston ichki suvlari va suv boylikhlari" mavzusini interfaol o'rganishda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini klaster metodi asosida rivojlantirish haqida ma'lumot berilgan, geografiya ta'limida darslik matnidagi manbalarni tez va oson o'rganishda klaster metodining afzalliklari haqida so'z yuritilgan. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursi"ni o'rganishda klaster metodining qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация

В данной статье представлена информация о развитии навыков критического мышления на основе кластерного метода в интерактивном изучении темы "Внутренние воды и водные ресурсы Узбекистана" в курсе "Физической географии Узбекистана", рассказывается о преимуществах кластерного метода в быстром и легком изучении источников в тексте учебника по географическому образованию. Данная информация о применении кластерного метода при изучении курса "Физической географии Узбекистана"

Abstract

This article provides information on the development of critical thinking skills on the basis of the cluster method in interactive study of the topic "internal waters and water resources of Uzbekistan" in the course of "Natural geography of Uzbekistan", talks about the advantages of the cluster method in quick and easy study of sources in the text of the textbook in geography education. Information about the application of the cluster method in the study of the course of "Natural geography of Uzbekistan" is given.

Kalit so'zlar: Klaster, pedagogik texnologiya, tanqidiy fikrlash ko'nikmasi, geografiya ta'limi. tabiiy geografiya

Ключевые слова: Кластер, педагогические технологии, навыки критического мышления, географическое образование, физическая география.

Key words: Cluster, pedagogical technology, critical thinking skills, geography education, natural geography.

KIRISH

Zamonaviy o'quvchini bilimli olishga, axborot va kommunikatsiya maydonida yo'l, maqsad izlash faoliyatiga motivatsiya qilish juda qiyin. Bu shuning evaziga sodir bo'lmoqdaki, bolalar barcha mакtab fanlari bo'yicha o'quv materiallarini qabul qilishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Buning sababi avvalo, tanqidiy fikrlashning yetarli darajada rivojlanmaganidir.

Tanqidiy fikrlash-baholovchi refleksiya bo'lib, berilgan fikrga qarshi shaxsiy fikrlashni anglatadi. Bu shaxsiy hayot tajribasiga yangi ma'lumot kiritish orqali rivojlanayotgan aqidani qabul qilmaydigan ochiq fikrlashdir. Bu tanqidiy fikrlash va ijodiy fikrlash o'rtaisdagi farq bo'lib, u baholashni ta'minlamaydi, lekin ko'pincha hayot tajribasi, tashqi qoidalalar va qoidalardan tashqariga chiqadigan yangi g'oyalarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Biroq, tanqidiy va ijodiy fikrlash o'rtaida aniq chegara qo'yish qiyin. Aytish mumkinki, tanqidiy fikrlash ijodiy fikrlashni rivojlanadir uchun boshlang'ich nuqtadir, bundan tashqari, tanqidiy va ijodiy fikrlash sintezda o'zaro bog'liqdir.²

² Муштавинская .И.В.Дарсда ва ўқитувчи тайёрлаш тизимида танқидий фикрлашни ривожлантириш технологияси [матн]/ И.В. Муштавинская. – М.: Каро, 2009. — 144 б

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining maqsadi bolalar uchun keyingi hayotda zarur bo'lgan aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishdir (muvozanatlari qarorlar qabul qilish, axborot bilan ishslash, asosiy va ikkinchi darajali ajratish, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati).

Ushbu texnologiyaning dolzarbligi shundaki, u darslarni maqbul rejimda o'tkazishga imkon beradi, bolalarda ishslash darajasi oshadi, darsda bilimlarni o'zlashtirish doimiy qidiruv jarayonida sodir bo'ladi.

Oddiy darsni yorqin, samarali qilish, o'qishni ta'lif bilan birlashtirish va psixologik qulaylik muhitini yaratishga yordam beradigan ko'plab yangi, zamonaviy shakllar paydo bo'ladi.

O'quvchining tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etilgan geografiya darsi an'anaviy darsga nisbatan bir qator afzallikkarga ega, chunki bu texnologiya kognitiv pedagogik maqsadlarga alohida e'tibor beradi:

- 1) bilim (ishlatilgan atamalar, aniq faktlar, tushunchalar);
- 2) tushunish (o'rganilgan faktlar, materialni talqin qilish);
- 3) qo'llash (yangi vaziyatlarda tushunchalarni ishlatish);
- 4) tahlil (faktlar va fikrlar, sabablar va oqibatlar o'rtafiga farqni amalga oshirish);
- 5) sintez (ijodiy ish yozish, tadqiqot rejasini tuzish);
- 6) baholash (materialni yaratish mantiqini baholash).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu samarali vositalardan biri — amerikalik o'qituvchilar J. Steele, K. Meredit, Ch. Templ va S. Uolter tomonidan ishlab chiqilgan o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasidir.³


Ushbu metodlar haqida Hayitov A., Boymurodov N., Mavlona R., To'raeva O., Xoliqberganov K., Yo'ldoshev J. G., Usmonov S.A., Vahobov H., Zaynutdinov A., Tolipov O., Usmonboeva M.lar o'zlarining pedagogik faoliyati davomida yaratgan ilmiy asarlarida bat afsil to'xtalib o'tib bu metodlarning afzallikkari, qanday foydalanish kerakligi haqida aytib o'tganlar. Bu texnologiyada olib borilgan darslarning ahamiyati shundaki, ular o'qituvchiga talabalar uchun zarur bo'lgan umumiy ta'lif va ko'nikmalarni shakllantirishga va boshqa maktab fanlarini o'rganishga, "o'rganishni o'rgatishga" imkon beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi taklif – anglash – tahlil qilish sxemasi bo'yicha darsni tashkil qilishni taklif qiladi va bir qator texnika va strategiyalarini taklif etadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus uslubiy vositalarni yaratish va qo'llash kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Geografiya darslarida qo'llaydigan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining usullari va strategiyalariga bat afsil to'xtalsak. "O'zbekiston tabiiy geografiysi" kursida ayrim murakkab mavzularni tez va oson o'zlashtirishda klaster metodiga murojaat qilish mumkin:


³Загашев И., Заир-бек С. Танқидий фикрлаш: ривожланиш технологияси [матн]/ Санкт-Петербург.: "Скифия" ва "Альянс Дельта", 2003. — 284 б.

GEOGRAFIYA



Rasm-1. Amudaryo klasteri.

Agar o'l kamiz daryolari haqidagi manbalarni umumlashtirmoqchi bo'lsak quyidagi klasterda aks ettirsak yanada qulay o'zlashtiriladi:




Rasm-2. Daryolarning to'ynish tiplari

Xuddi shu kabi boshqa daryolarni ham klasterga joylashtirsak bo'ladi.
 Bundan tashqari, ko'llar haqidagi barcha ma'lumotlarni klasterga joylashtirsak, manbalarni tahlil qilish yanada osonlashadi:



Rasm-3. Tabiiy o'lkalardagi asosiy ko'llar.

Orol dengizi haqidagi barcha manbalarni esa quyidagi klasterga joylasak bo'ladi.



Rasm — 4.Orol dengizi klasteri.

“O'zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “O'zbekiston ichki suvlari va suv boyliklari” mavzusida O'zbekiston daryolariga oid manbalar juda keng qamrovililigini hisobga olib, daryolar haqidagi manbalarni quyidagi klasterlarda aks ettirsak yanada osonroq bo'ladi.

Har bir daryo haqidagi manbalarni o'rganish qulay bo'lishi uchun murakkab klasterga joylasak yanada oson o'zlashtiriladi.

XULOSA VA NATIJALAR

Demak, klasterlardan dars jarayonida foydalanish orqali bir vaqtning o'zida fikrlar xilmashilligiga ega bo'lish va tanqidiy fikrashni o'stirishga ham erishish mumkin. Pedagogik texnologiyaning eng muhim metodlaridan biri ham dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish va olingan bilimlarni mustahkamlash uchun turli interfaol metodlardan samarali foydalanishdan iborat, shunday ekan klaster metodidan foydalana turib biz darsni qiziqarli tashkil qilish, dars jarayonida erkin fikrashni o'stirish va kutilgan natijaga erishishimiz mumkin.

GEOGRAFIYA

Bugungi kunda ta'lif jarayoniga kuchli e'tibor qaratilayotgan bir paytda Prezidentimiz aytganlaridek "Ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizda har bir farzandni "bu mening farzandim, ertangi kunimning poydevori, zamini,"- deb tarbiya qilsak, albatta, natijaga erishamiz"⁴. Kelajak avlodimiz bo'lmish yoshlar tarbiyasida xatoga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishga barpo etamiz. Toshkent- "O'zbekiston"-2016y. B.14
3. 29-dekabr.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro kongress markazida o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutqi.
4. Абдуллаев З.А. География фанида ноанъанавий дарс усулларидан фойдаланиш. -Навоий., 2003. — 108 б.
5. Вахобов Х., Зайнутдинов А. География ўқитиш методикаси. 1-қисм Маъruzalap matni. -Т.: Университет, 2000.
6. Ro'ziyeva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Т.: TDPU, 2013.
7. Hayitov A., Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullaridan foydalaniш. -T.: Yangi asr avlod, 2006.
8. J.G'Yo'ldoshev. S.A.Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari". Т.; O'qituvchi, 2004.
9. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberganov. Pedagogika. Т.: O'qituvchi, 2001.
10. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –Т.: Fan, 2006.
11. Муштавинская .И.В.Дарсда ва ўқитувчи тайёrlаш тизимида танқидий фикрлашни ривожлантириш технологияси [матн]/ И.В. Муштавинская. – М.: Каро, 2009. — 144 б
12. Загашев И.,Заир-бек С. Танқидий фикрлаш: ривожланиш технологияси [матн]/ Санкт-Петербург.: "Скифия" ва "Алякс Дельта", 2003. — 284 б

⁴ 29-dekabr.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro kongress markazida o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutqidan.